

TALABALAR KASBIY IJTIMOIYLASHUVI JARAYONIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR

*N. Daminova*¹

Annotatsiya:

Maqolada talabalar kasbiy ijtimoiylashuviga ta'sir etuvchi omillar haqida fikr yuritilgan. Jumladan, makro darajadagi ta'sir: yoshlar jamoat tashkilotlari, ommaviy axborot vositalari, davlat va jamiyat miqiyosidagi ta'sir omillari, hududiy miqiyosdagi ta'sir omillari, sog'liqni saqlash va sport sohalaridagi ta'sir omillari, shuningdek, mikro darajadagi ta'sir: OTT doirasidagi ta'sir omillari, eng yaqin ijtimoiy muhit ta'sir omillari, oila muhiti (mikro muhit)ning ta'sir omillari yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: ijtimoiylashuv, ijtimoiy muhit, oila muhiti, kasbiy ijtimoiylashuv, oliy o'quv yurtlari, yoshlarning ijtimoiylashuvi, ommaviy axborot vositalari, global muloqot, sog'liqni saqlash, jamiyat, kasbiy tanlov.

doi: <https://doi.org/10.2024/pf39g620>

Mamlakatimizda keyingi yillarda shaxs rivojlanishi, barkamol avlod tarbiyasi va inson omili masalasi ta'lim islohotlarining asosiy mazmunini tashkil etib, oliy ta'lim tashkilotlarida kasbiy ta'lim va ma'naviy tarbiya asosi sifatida talabalarni ma'lum darajada tadbirkorlik faoliyatiga keng jalb etish, talabalar bilan ishlash tizimini takomillashtirishga qaratilgan islohotlarga alohida e'tibor qaratilmoqda. Natijada talabalarga jamiyatdagi o'z o'rnini topishiga ko'maklashish, ularning kasbiy raqobatbardoshligini ta'minlash uchun katta imkoniyatlar yaratilmoqda. "Mamlakat taraqqiyoti uchun yangi tashabbus va g'oyalar bilan maydonga chiqib, ularni amalga oshirishga qodir bo'lgan, intellektual va ma'naviy salohiyati yuksak yangi avlod kadrlarini tayyorlash, ta'lim tashkilotlari bitiruvchilari zamonaviy kasb egalari bo'lishlari uchun ularda zarur ko'nikma va bilimlarni shakllantirish" vazifasi belgilanib, bu borada talabalarni kasbiy ijtimoiylashtirishning milliy xususiyatlarini tahlil etish, kasbiy yo'naltirilgan tarbiya jarayonining tashkiliy tuzilmasini talabalarining kasbiy ijtimoiylashuvini ta'minlashning pedagogik mazmunini takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega.

Oliy ta'lim tashkiloti kasbiy ijtimoiylashuv instituti bo'lib hisoblanadi. Ta'lim tashkiloti ta'lim jarayonining subyekti sifatida turli makro va mikro omillar ta'sirida talabalarining ijtimoiylashuv jarayoniga yaxshilaydi. Talabalarining ijtimoiylashuv jarayoniga ta'sir ko'rsatadigan makro darajadagi ta'sir oliy ta'lim tashkiloti va boshqa oliy ta'lim tashkilotrari orqali amalga oshiriladi. Bunga sabab makro darajadagi ta'sir muayyan maqsad bilan amalga oshirilmaydi.

Oliy ta'lim tashkilotlari talabalarini kasbiy ijtimoiylashtirish jarayoniga ta'sir etuvchi omillar aks ettirilgan ushbu sxemaning mazmunini batafsil ko'rib chiqsak. Mikro darajada oliy ta'lim tashkiloti talabalarining kasbiy ijtimoiylashuvi quyidagi omillar ta'siriga bog'liq:

¹ *Daminova Nigora Kudratovna, Innovatsion ta'lim texnologiyalari va pedagogikasi kafedراسи katta o'qituvchisi, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

1. OTTning faoliyati. Ta'lim tashkilotining tashkiliy-ma'muriy, moddiy-texnik va boshqa resurslari talabalarning kasbiy ijtimoiylashuvi samaradorligiga ta'sir qiladi. Uning ijtimoiylashuv ta'sirining samaradorligini oshirish uchun OTT quyidagilarni bajarishi kerak:

- moddiy-texnik ta'minot: o'quv xonalari, maxsus laboratoriyalar, oshxona, sport maydoni va zali, o'quv xonalarining kompyuter va boshqa texnik vositalar bilan jihozlanganligi, o'quv-tarbiyaviy jarayonni samarali tashkil etish uchun zamonaviy texnik vositalarning va shu kabilarning mavjudligi, infratuzilma, talabalarning bo'sh vaqtlari, dispanser va boshqalar.

- tayanch va ishchi o'quv dasturlarini Davlat ta'lim standartlariga mos holda ishlab chiqish; mutaxassis kadrlarni tayyorlash jarayonini maksimal darajada hududiy mehnat bozori talablariga moslashtirish;

- professor-o'qituvchilar uchungina "qulay" bo'lgan fanlarni emas, balki bitiruvchilar uchun juda zarur bo'lgan fanlarni (amaliy kompyuter dasturlari, aloqa bo'yicha treninglar va boshqalarni) kiritish;

- oliy ta'lim tashkiloti innovatsion salohiyatini o'quv jarayoniga yangi innovatsion texnologiyalarni qo'llash orqali shakllantirish;

- nazariy mashg'ulotlar va amaliy mashg'ulotlarni o'tadigan professor-o'qituvchilar tarkibini litsenziyalash talablariga mos ravishda shakllantirish;

- bo'lajak mutaxassislarga o'z yo'nalishlari bo'yicha malakaviy va pedagogik amaliyotni o'tashlari uchun kerakli sharoitlarni yaratish.

2. Eng yaqin ijtimoiy muhit: "fakultet" – mutaxassislik – o'qish shakli – kurs tamoyili bo'yicha tashkil etilgan talabalar guruhi, ta'kimdan tashqaridagi qiziqishlari, do'stlari va o'rtoqlariga ko'ra, tasodifan tashkil etilgan norasmiy talabalar guruhlarini (turli ta'lim tashkilotlarida o'qish, o'z OTTlari uchun o'ziga xos reklama yaratish haqida fikr almashadilar).

3. Oila: o'quv jarayoni oilaning kasbiy an'analari bilan ta'minlanishi, talabani kasb-hunar o'rganishga bo'lgan ishtiyoqi yuqorida aytganimizdek, oila sulolasi izdoshi bo'lish istagi va hokazolar bilan ta'minlanishi mumkin. Bundan tashqari, oilaning iqtisodiy va ijtimoiy imkoniyatlari ma'lum qo'shimcha ta'lim xizmatlari (chet tili kurslari, xalqaro amaliyot va talabalar almashinuvi va boshqalar) mavjudligini cheklab qo'yishi va umuman kasbiy ijtimoiylashuv jarayoniga to'sqinlik qilishi mumkin.

Kasbiy ijtimoiylashtirishning makro darajadagi omillar quyidagilarga bog'liq bo'ladi:

1. Ta'lim sohasidagi davlat siyosati, yoshlarga oid davlat siyosati, mehnat bozorining davlat standartlari asosida tartibga solinishi va shu kabilar. Bunda bitiruvchi talabalarning o'z mutaxassisliklari bo'yicha kasbiy jihatdan ijtimoiylashganlik natijasi quyidagilarga bog'liq bo'ladi:

- mamlakatning yoshlarga oid davlat siyosatining mazmun-mohiyati, belgilangan maqsadi, amalga oshiradigan vazifalari va ustuvor yo'nalishlariga;

- bo'lajak mutaxassislarning ta'lim olish yakunidagi bilim, ko'nikma va malakalarining qay darajada ekanligi. O'qitiladigan fanlar mazmuniga qo'yilgan talablarning hududiy mehnat bozori talablaridan kelib chiqqan holda o'zgarib turishi, oliy ta'lim va professional ta'limning davlat ta'lim standartlari mazmuni doimiy ravishda tahlil qilib borilishi;

- fan-texnika, ilm-fan taraqqiyoti, sanoat rivojlanishi va boshqalardagi yutuqlar;

- muayyan mutaxassislik bo'yicha mutaxassislarni tayyorlash uchun davlat buyurtmasi. Davlat buyurtmasi, bizningcha, bitiruvchilarni tegishli oliy ta'lim tashkilotlarida mutaxassislar tayyorlash bo'yicha davlat buyurtmasi bo'lgan korxonalariga taqsimlash va ishga joylashtirish yo'li bilan kafolatlangan bandligini ta'minlash tizimini nazarda tutishi kerak;

- yuqori malakali va sifatli mutaxassislar tayyorlaydigan oliy ta'lim tashkilotlariga davlat byudjeti mablag'larini ko'p miqdorda ajratish. Bunday oliy ta'lim tashkilotlari qatoriga – amaliy va fundamental ilmiy izlanishlarni faol tashkil etuvchi va olib boruvchi, ta'lim-tarbiya jarayonida innovatsion o'qitish usullarini keng joriy etuvchi, texnik va texnologik taraqqiyotni doimiy ravishda kuzatib boruvchi oliy ta'lim tashkilotlari kiradi. Ta'lim tashkilotlarining davlat byudjeti tomonidan bunday moliyalashtirilishi turli mazmundagi tanlovlar asosida va muayyan davlat dasturlari yordamida amalga oshirilishi maqsadga muvofiqdir;

- mamlakat hududidagi oliy ta'lim tashkilotlari o'rtasida faoliyati nisbatan zaif bo'lgan oliy ta'lim tashkilotlari faoliyatini yaxshilash maqsadida, ta'lim faoliyatini amalga oshirishga imkon bermaydigan, kuchliroq talablarni o'zida mujassamlashtirgan yanada qattiqroq litsenziyalash standartlarini yaratish lozim. Etarli darajada moddiy-texnik ta'minotga ega, malakali professor-o'qituvchilari bo'lgan oliy ta'lim tashkilotigina kasbiy ijtimoiylashuvning yuqori darajasiga erishishi mumkin.

2. Makro darajadagi ta'sirning navbatdagi omili – hududiy miqiyosdagi ta'sir omillaridir. Bu darajadagi ta'sir omillariga: mamlakatning turli hududlaridagi mehnat bozorlariga yo'naltirish, ya'ni muayyan bir hududdagi mutaxassis kadrlarni tayyorlab beradigan oliy ta'lim tashkilotlarini moddiy va ma'naviy jihatdan qo'llab-quvvatlash; tarmoqlar bo'yicha hududiy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichi, ya'ni tarmoqlar bo'yicha hududning iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlarini nazorat qiladi; mutaxassis kadrlarni tayyorlash bo'yicha o'zining hududiy qonun-qoidalarini ishlab chiqadi; shuningdek, byudjet mablag'lari hisobidan ta'lim tashkiloti faoliyatini moliyalashtirishni ta'minlaydi.

3. Yoshlarning sog'ligini saqlash va sport sohalaridagi ta'sir omillari ko'rsatkichlari. Hech kimga sir emaski, oliy ta'lim tashkilotiga kelgan yoshlarning ayrimlari ma'lum kasalliklardan aziyat chekadi va bu talabaning mashg'ulot bilan bog'liq yuqori aqliy, jismoniy stressga bardosh berish qobiliyatini sezilarli darajada pasaytiradi, uni qiyinlashtiradi hamda u yoki bu kasbiy faoliyatda imkoniyatlarni kamaytiradi, hatto ularga tanlangan kasb bo'yicha biror joyda ishlashda o'zini namoyon qilish imkoniyatini bermaydi. Shu sababli, talabalar kasbiy ijtimoiylashuvining samaradorligi asosan o'qituvchilarning tayyorgarlik darajasi, bo'lajak mutaxassislarning sog'ligi ko'rsatkichlariga va talabalarning jismoniy hamda ruhiy salomatligining haqiqiy ko'rsatkichlariga kasbiy talablarning muvofiqligiga bog'liq bo'ladi.

4. Yoshlar jamoat tashkilotlari faoliyatining ta'siri muhim ahamiyat kasb etadi. Yoshlar jamoat tashkilotlari – oliy ta'lim talabalari manfaatlarini, ularning qadriyat yo'nalishlarini, talabalarning tashqi dunyoga bo'lgan obyektiv munosabatini, talabalarni ma'lum faoliyatga undaydigan motivatsiyasini va talabaning o'zini namoyom qilishga intilishini shakllantiradi. Shu sababli, OTTda amalga oshiriladigan kasbiy ijtimoiylashuv samaradorligi sezilarli darajada kamayishi yoki yoshlar tashkilotlari ta'sirida kuchaytirilishi mumkin.

5. Ommaviy axborot vositalariga ta'sir qilish. Ommaviy axborot vositalari yoshlar ongiga ma'lum darajada ta'sir ko'rsatadi: ular bir tomondan, u yoki bu mutaxassislik uchun ishga munosabatni, mutaxassislarning kasbiy mas'uliyatini shakllantiradi, kasbni yuksaltirishi yoki obro'sizlantirishi, uni ommabop qilmasligi va boshqalar. Shuningdek, ommaviy axborot vositalari hududiy mehnat bozorlarida ko'proq ehtiyoj seziladigan mutaxassisliklar, oliy ta'lim tashkilotlarining mutaxassislarni qay darajada tayyorlashi haqida ma'lumotlarni uzatish, ta'lim tashkilotlarining turli reytinglarini e'lon qilish va hokazo, ta'lim xizmatlari bozori to'g'risida obyektiv ma'lumot berish, shundan boshlab

abituriyent, talaba kasbni o'rganish jarayonini to'g'rilashi mumkin, shuningdek, raqobatchilar fonida o'z rivojlanish strategiyasiga o'zgartirishlar kiritishi mumkin.

Demak, rasmiy va norasmiy jamoalarga birlashgan talabalar har qanday ta'sirga, jumladan, ijtimoiylashuv jarayoniga moslashuvchan tarzda javob bera oladilar. Shuning uchun ham, talabalarning kasbiy ijtimoiylashuv jarayonini tashkil etish makro va mikro darajada tartibga solinadigan tegishli davlat ta'lim siyosati va yoshlar siyosati asosida amalga oshirilishi kerak. Shu o'rinda, har qanday ta'lim tashkiloti talabalar kasbiy ijtimoiylashuvining mikro darajadagi ta'siri samaradorligini oshirishi lozim. Bo'lajak mutaxassis hududiy mehnat bozorida raqobatbardosh bo'lishi, o'zining kasbiy vazifalarini yuqori darajada sifatli qilib bajarishi uchun faoliyat xarajatlari va resurslarini optimallashtirish muhim masaladir. Buning uchun mutaxassis barcha kerakli vositalardan foydalanishi shart. Shuningdek, o'zi ishlayotgan korxonaga rivojigagina emas, balki o yasayotgan butun mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ham hissa qo'shisha olishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- [1]. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 16-iyundagi oliy ta'lim tizimida ustuvor vazifalarga bag'ishlangan videoselektoridagi nutqi
- [2]. Gershunskiy B.S. *Philosophy of education* / B.S. Gershunskiy. – M. : Flinta, 1998. – 432 p
- [3]. Дюркгейм Э. Педагогика и социология // -М.: Изд-во «Республика»; Социология: предмет, метод, предназначение. - М.: Канон, 1995. - С.244-264
- [4]. D.M.Begmatova, *O'zbek oilalarida yoshlarning kasbiy ijtimoiylashuvi. Monografiya.* - Samarqand: SamDChTI, 2020. – 142-b.
- [5]. N.K.Daminova, *Zamonaviy olamda shaxsning ijtimoiylashuvi // Academic research in educational sciences.* – 2021. – T. 2. – №. 2. – С. 274-278.
- [6]. Begmatova D. M., Daminova N. K., Vaydulla M. M. *Improving the pedagogical content of professional socialization of youth and students in the context of globalization //ISJ Theoretical & Applied Science.* – 2022. – T. 1. – №. 105. – С. 756-759.